XALQ DEPUTATLARI UZUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 11-iyun VII-8-56-8-118-K/25 Uzun tumani

“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmoniga asosan, Uzun tuman hokimligi huzuridagi “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risidagi tuman hokimining hamda tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarining taklifini ko‘rib chiqib, Xalq deputatlari Uzun tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmoni bilan “Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi yo‘naltirilgan mablag‘lardan foydalanish Xalq deputatlari tuman kengashi qarorlari asosida amalga oshirilishi ma’lumot va ijro uchun olinsin.

2. Uzun tuman hokimligi huzuridagi «Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik» jamg‘armasi hisobidan mablag‘lar ajratish 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi boshlig‘i (V.Azimov)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Hokimligining bosh hisobchisi (I.Axmedov)ga jamg‘armadan ajratilgan mablag‘larni qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlasin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Kamolov) hamda hokimning Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari - tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.Xasanov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi BOZOROV XABIBULLA SHERDONAQULOVICH

Xalq deputatlari Uzun tumani Kengashining
2025-yil 11-iyundagi
VII-8-56-8-118-K/25 -son qaroriga
1-ilova

“Infratuzilma va ijtimoiy barqarorlik” jamg‘armasi mablag‘larini yo‘naltirish to‘g‘risida

so‘m hisobida

T-r	**Tashkilot nomi**	**Mablag‘ yo‘naltirishning maqsadi**	**Ajratiladigan mablag‘ miqdori, so‘mda**
1	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmonining 9-(b) bandi 1-xat boshiga aso san aholiga qulay shart-sharoit yaratish uchun tumandagi O‘zbekiston ko‘chasini zamonaviy tungi yoritish chiroqlarini o‘rnatish uchun	330 000 000
2	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmonining 9-(b) bandi 3-xat boshiga asosan tumanda kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar hamda nogironligi bo‘lgan oilalarni farzandlarini oromgohlarga yuborish uchun	50 000 000

3	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmonining 9-(b) bandi 2-xat boshiga asosan tumanda kambag‘al oilalar reestriga kiritilgan oilalar hamda yoshi katta, nogironligi bo‘lgan oilalarni uylarini ta’mirlash uchun qurulish mollari bilan ta’minlashga	70 000 000
4	Uzun tuman hokimligiga	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-17-sonli Farmonining 9-(b) bandi 3-xat boshiga asosan tumanda kambag‘al oilalar reestiriga kiritilgan oilalar hamda nogironligi bo‘lgan oilalarni nogironlik aravachalari, eshitish uskunalari, nogiron va qariyalar uchun sport anjomlari, ko‘zi ojiz fuqarolarning yo‘llarida harakatlanishida qulaylik yaratish maqsadida tuman markazidagi asosiy 4 ta chorrahada ovozli svetaforlar o‘rnatish uchun	50 000 000
Jami:		**xxx**	**500 000 000**